

188/049-34
2025.17.11

“TASDIQLAYMAN”
Tuman hokimi



U.Yelmuratov
2025 yil 17-noyabr

**Tuman hokimligida o‘tkazilgan yig‘ilish
BAYONI**

2025 yil “17” noyabr

Uchquduq tumani

Raislik qiluvchi:

U.Yelmuratov – tuman
hokimi

Ishtirok etdi:

Tuman hokimi
o‘rinbosarlari, mas‘ul
xodimlar, korxonalar va
tashkilot rahbarlari

KUN TARTIBI:

- 1.Ijro intizomini mustahkamlash edo.ijro.uz elektron tizimi orqali kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida.**
- 2.Navoiy viloyat hokimligining joriy yilning 14-noyabr sanasidagi 10-02/720-sonli yig‘ilish bayonida berilgan topshiriqlar ijrosi to‘g‘risida.**

(U.Yelmuratov, S.Hamrayev, N.Muratov, E.Rasulov, N.Najmiddinova, D.Astanov, S.Muratov, M.Xolmamatova, ... va boshqalar, U.Yelmuratov)

Yig‘ilishni tuman hokimi U.Yelmuratov ochiq deb e‘lon qildi va yig‘ilish qatnashchilarini kun tartibidagi ijro intizomini mustahkamlash edo.ijro.uz elektron tizimi orqali kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini ta‘minlash, viloyat hokimligining joriy yilning 14-noyabr sanasidagi 10-02/720-sonli yig‘ilish bayonida berilgan topshiriqlar bilan tanishtirib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-son va “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025- yil 25-iyuldagi PF–117-son Farmonlari ijro intizomini mustahkamlashda asosiy tayanch hujjat sifatida xizmat qilmoqda.

Mazkur Farmonlar davlat boshqaruvi tizimida intizom va mas‘uliyatni kuchaytirish, qonunchilik hujjatlarining ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta‘minlashga qaratilgan.

Tuman hokimi edo.ijro.uz hujjat aylanish tizimi orqali bugungi kun holatiga jami 4677 ta topshiriq tumanga ijro uchun kelib tushganligi, mazkur topshiriqlarning 2574 tasi

bajarilgan (55,1 % (63 ta topshiriq ijrosi muddatidan kech bajarilgan)), 2103 (44,9%) tasi ko'rib chiqish jarayonida ekanligi to'g'risida ma'lumot berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari asosidagi 123 ta nazorat rejalar orqali 1020 ta topshiriq kelib tushgan, 665 ta (65%) topshiriqning ijrosi ta'minlangan, 355 tasi ko'rib chiqish jarayonidagi, topshiriqlarning **6** tasining bajarish muddati noyabr oyiga belgilangan bo'lib, mazkur topshiriqlarning ijrosi ta'minlanganligi, nazorat reja bandlerida berilgan topshiriqlarning **123** tasining ijro muddati dekabr oyiga belgilanganligi yuzasidan alohida ta'kidlab o'tdi.

Noyabr oyi yakuniga qadar tizim orqali ijroga qaratilgan **59** ta nazoratga olingan topshiriqlarni belgilangan muddatida ijrosini sifatli bajarish talab etilishi to'g'risida ma'lumotlar aytdi.

Shundan, tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari-S.Hamrayevda **18** ta, tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari N.Muratovda - **17** ta, tuman hokimligi qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Muratovda- **8** ta, tuman hokimining o'rinbosari-qishloq xo'jaligi bo'lim boshlig'i-D.Astanovda-**5** ta, tuman hokimi o'rinbosari-E.Rasulovda-**5** ta, tuman Kengashi kotibiyati mudiri-M.Kamolovada-**1** ta, tuman hokimligi tashkiliy kadrlar guruhi rahbari-L.Gadoyevda-**2** ta, raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha loyihalar menejeri-A.Salimovda-**3** ta topshiriq ko'rib chiqish jarayonida.

Tuman hokimi o'rinbosarlari va tegishli mas'ullar tomonidan ijro uchun yuborilgan nazoratdagi topshiriqlarning ijrosi yuzasidan muddatida, to'liq va sifatli ma'lumotlarni tizimga noyabr oyining **25-sanasiga** qadar birlashtirish lozimligi yuzasidan ko'rsatmalar belgilab berildi.

Tuman hokimligining dekabr oyida nazoratda olingan topshiriqlari **148** tani tashkil etib, yana tizim orqali kirim qilinib ijroga qaratiladigan topshiriqlarni hisobga olganda ijrosini ta'minlashni noyabr oyida boshlash va ish unumdorligini oshirish zarurligi to'g'risida aytib o'tdi.

Tuman tashkilotlari tomonidan tizim orqali ijro uchun yuborilgan **6** ta topshiriqning bugungi kun holatiga ijrosi ta'minlanmagan.

Jumladan, tuman iqtisodiyot va moliya bo'limida-1 ta, tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limida-1 ta, tuman soliq inspeksiyasida-1 ta, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limida-1 ta, tuman agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasida-1 ta, "Mikrokreditbank" ATB tuman filialida-1 tani tashkil etadi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan iqtisodiy o'quv yig'ilish ishtirokchilarining bildirgan fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda yig'ilish,

QAROR QILADI:

1.Tuman hokimining yig'ilish kun tartibiga kiritilgan, ijro intizomini mustahkamlash edo.ijro.uz elektron tizimi orqali kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini ta'minlash, viloyat hokimligining joriy yilning 14-noyabr sanasidagi 10-02/720-sonli yig'ilish bayonida berilgan topshiriqlari yuzasidan bildirilgan axborot hamda topshiriqlari ijro uchun qabul qilinsin.

2.Tuman hokimining o'rinbosarlari (Hamrayev, Muratov, Rasulov, Najmiddinova, S.Muratov, Astanov) larga, tegishli mas'ullarga :

"edo.ijro.uz" elektron tizimida ijrosi o'z muddatida ta'minlanishi shart bo'lgan barcha topshiriqlar ijrosini tizimda belgilangan muddatlarda ta'minlab, joriy yilning noyabr oyi

yakuniga qadar o'z muddatida bajarilishi shart bo'lgan **59** ta nazoratdagi topshiriqlarning ijrosini bajarib, ijro nazoratidan olish choralari ko'rsin;

nazorat reja bandlarida berilgan **123** ta ijro muddati dekabr oyiga belgilangan topshiriqlarning ijrosini belgilangan muddatini kutmasdan ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar belgilasin;

tizim orqali ijro uchun yuborilgan **2103** ta topshiriqlarni har bir o'rinbosar o'z komplekslari kesimida o'rganib chiqib, sifatli ma'lumotlarga asoslangan holda belgilangan muddatida bajarish yuzasidan hodimlarning mas'uliyatini oshirib, ijrosini yil yakuniga qadar ta'minlashni yo'lga qo'ysin;

topshiriqlar ijrosini ta'minlash jarayonida muddat buzilishi, muddatidan kech bajarish holatlari yuzasidan xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ullar intizomiy chora ko'rilishi yuzasidan qat'iy ogohlantirilib, topshiriqlarni muddatida bajarish yuzasidan tegishli choralarni ko'rsin;

3. Tumandagi korxonalar, tashkilot va muassasa rahbarlariga:

Uch kun muddatda edo.ijro.uz elektron tizimi orqali kelib tushgan va ijrosi ta'minlanmagan jami **6** ta topshiriqlarning ijrosini ta'minlash choralari ko'rsin;

Kelib tushgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash yuzasidan doimiy ravishda mas'uliyatsizlikka yo'l qo'yib kelayotgan mas'ullar qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortilishi yuzasidan jiddiy ogohlantirilsin.

4. Tuman hokimligi ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi M.Xolmamatova:

Har haftaning dushanba kuni "Hokimlik soati" va haftaning juma kuni tuman hokimining birinchi o'rinbosari huzurida ijro intizomi ahvolini tanqidiy muhokama qilib borish uchun belgilangan tartibda ma'lumotlar kiritib borsin.

5. Ushbu yig'ilish bayoni bandlarida berilgan topshiriqlar ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o'rinbosarlari va tarkibiy bo'linma rahbarlari zimmasiga yuklansin.

Bayonlashtirdi: M.Xolmamatova